

YOSHLAR ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQANING IJTIMOY MEXANIZMLARI

Qurbonova Feruza – prorektor

Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti

Tayanch soʻzlar: yoshlar, musiqa, ijtimoiy, mexanizm, didaktika, qadriyat, milliylik, ijtimoiylashuv, kommunikatsiya.

Ключевые слова: молодежь, музыка, социальный, механизм, дидактика, ценность, национальность, социализация, коммуникация.

Key words: youth, music, social, mechanism, didactics, value, nationality, socialization, communication.

Bizning xalqimiz azal-azaldan san'atga mehr va ixlos qo'yib yashaydi, musiqani inson ruhining ilohiy quvvati deb biladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

KIRISH. Bugungi kunda jamiyatning ko'plab sohalalari, ya'ni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy tomondan rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda o'zbek milliy musiqa san'atining yoshlar estetik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatiga yangicha yondashuv juda muhim bo'lib qolmoqda. Bu borada, ayniqsa, uzoq yillar mobaynida ongimizga singdirilib kelgan kommunistik mafkuraning g'ayriinsoniy aqidalaridan voz kechishimiz, hodisalarga milliy ruh nuqtayi nazaridan yondashuvimiz muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy musiqa madaniyati muayyan bir millatning his-tuyg'u va kechinmalarini ifoda qiladi, shuning uchun ham unga milliylik xosdir. Unda millatning butun kechmishi, tarixi, fantaziyasi, estetik didi, orzu va armonlari, quvonch va tashvishlari, dard va amlari mujassamdir. Demak, milliy musiqa san'atisiz Vatan mustaqilligi uchun fidoiy insonlarning voyaga yetishini hatto tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

“Har qanday madaniyat, jumladan, musiqa madaniyati ham boshqa xalqlar san'ati bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi, biroq hech qachon u milliy zamindan ajrab, uzilib qolmaydi. O'zbek milliy musiqa madaniyati va san'ati mahalliy xalqlarning milliy ohanglari zaminida shakllanib kelgan. Har bir milliy madaniyat uchun ayni vaqtda umuminsoniylik xosdir, umuminsoniylik milliylik orqali namoyon bo'ladi. Demak, “Madaniyat (arab. madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli”[1] dir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Bugun biz mamlakatimizda milliy taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ymoqdami. Hayotimizning barcha jabhalarida

amalga oshirilayotgan jadal o'zgarish va yangilanishlar madaniyat va san'at sohasida ham izchil davom ettirilmoqda”[2]. Yoshlarda estetik madaniyatni yuksaltirish ularning oliy ta'lim muassasasigacha bo'lgan hayotiy tayyorgarligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bunda ulapning oliy ta'lim muassasalariga ma'lum amaliy o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ko'nikmalarga va malakalarga ega holda kelishlari, ulapda his-tuyg'u, tafakkur iroda sifatleri ma'lum darajada shakllangan bo'lishi, milliy musiqa madaniyatiga hurmat tuyg'usi unga qiziqish xususiyatining mavjudligi individning barkamol bo'lishida asosiy zamin bo'lib hisoblanadi.

Musiqa madaniyatini milliy madaniyat rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati benihoya katta. Ahmad Donish aytganidek, “...haqiqiy baxt boylikda emas, aksincha, ma'naviy hayotni mushohada etishda, shaxsning musiqachilar, qo'shiqchilar, shoirlar bilan bo'lgan muloqotlaridan oladigan haqiqiy ma'naviy rohatida, lazzatlanishi va qoniqishidadir”[3]. Demak, ma'naviy rohat va lazzatlanishga yo'naltiruvchi hodisa sifatida musiqa jamiyatning farovonligini yoki unga erishish uchun istak-xohishini ham ko'rsatib beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Keyingi yillarda ma'naviy qadryatlarimizning tiklanishi, yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda milliy musiqa madaniyati va san'atining noyob durdonalarining rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan buyuk san'atkorlarning hayoti va ijodini chuqur o'rganish, falsafiy mushohada etish katta tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga egadir. Ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan bebaho milliy qadriyatlarni va an'analarimizni imkoni boricha to'laroq tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni, shu jumladan, musiqiy

merosimizni mufassal o'rganib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni estetik madaniyatini yuksaltirishda, ularni hamma tomonlama yetuk va barkamol bo'lib kamol topishlarida astoydil xizmat qilish har bir ustozning (qaysi kasb egasi bo'lmasin) eng dolzarb vazifasi bo'lishi bugungi kunning talabidir. Dunyo xalqlarining musiqiy amaliyotidan bizga shu narsa ma'lumki, har bir xalqning o'z kuy yo'nalishlari va uni bastalash usullari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari musiqiy asarlariga e'tibor berganimizda, o'zbek milliy musiqasi tojik, qoraqalpoq, uyg'ur xalqlari musiqalariga hamohang bo'lishini anglashimiz mumkin. Ma'lumki, barcha millatlarning o'ziga xos musiqiy madaniyati, uning tarixi, falsafiy fikrlaridan kelib chiqqan holda, asrlar o'tgan sayin tobora takomillashib va yuksalib boradi.

O'zbekistonning tarixiy o'tmishi, boy musiqiy madaniyati, uning noyob bebaho falsafiy musiqiy merosi jamiyatning ijtimoiy jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Musiqa madaniyatining rivojlanishida jamiyat bazasiga monand keladigan siyosiy ustqurmasi va uni hal qiluvchi davlatning roli juda kattadir.

“Musiqa madaniyati va san'ati insonning ijtimoiy faol mavjudot bo'lib shakllanishi bilan hamohang tarzda odamzodning tabiat va jamiyatdagi o'rni va faoliyatini belgilovchi mehnat, ijod va yashash sharoitlari natijasi sifatida paydo bo'ladi”[4].

Ajdodlarimiz bosib o'tgan madaniy taraqqiyot yo'lini chuqur tahlil qilish orqali shu narsalar ayon bo'lmoqdaki, jamiyatning yangi taraqqiyot

bosqichida yoshlar faolligini ta'minlash ularning tafakkur tarzini o'zgartirish, musiqa madaniyati an'analari va mezonlariga yangicha yondashish bilan birgalikda ularning izchil omillarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, yoshlarning ommaviy ijtimoiy faolligiga erishish uchun ularda musiqa madaniyatini shakllantirish, takomillashtirish yuzasidan bir qator tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa yoshlar orasida musiqa san'atiga qiziqish, uning ijtimoiy natijalariga ijobiy munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yoshlar estetik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa muhim ijtimoiy vosita sifatida xizmat qiladi. U nafaqat estetik didni tarbiyalaydi, balki yoshlarning shaxsiyati, ijtimoiy qarashlari, axloqiy va madaniy qadriyatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqa orqali yoshlar o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida anglaydilar, madaniy identitetini shakllantiradilar va ijtimoiy integratsiyaga erishadilar.

Olib borilgan, tadqiqot ishi davomida musiqaning kommunikativ, didaktik va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalaridan oqilona foydalanish orqali yoshlar orasida estetik madaniyatni rivojlantirish mumkinligi ayon bo'ldi. Shu tufayli, musiqiy ta'limni takomillashtirish, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli yo'lga qo'yish va yoshlarni musiqiy ijodiyotga faol jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, xalqimizning ma'naviy kamolotida ham tub burilishlarni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. – 7 b.
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti; Ma'naviyat nashriyoti, 2019. – 686 b.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 4-tom. – 344 b.
4. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1996. – 150 b.
5. Asqar F. Musiqa va inson ma'naviyati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 31 b.

REZYUME. Ushbu maqolada yoshlarning estetik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida musiqaning ijtimoiy mexanizmlari muhim rol o'ynashi tahlil qilinadi. Muallif musiqaning yoshlarning shaxsiyati, didi, axloqiy va madaniy qadriyatlari ustidagi ta'sirini, jamiyatdagi kommunikatsiya, identifikatsiya va ijtimoiy integratsiya funksiyalarini ko'rib chiqadi. Maqolada musiqaning yoshlar orasida ijtimoiy guruhlar tuzilishi, o'zaro aloqalar va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyati, shuningdek, musiqiy ta'lim va madaniy tadbirlarning yoshlar estetik madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligi haqida fikrlar bildiriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется важная роль социальных механизмов музыки в процессе формирования и развития эстетической культуры молодежи. Автор рассматривает влияние музыки на личность, вкус, нравственные и культурные ценности молодежи, функции коммуникации, идентификации и социальной интеграции в обществе. В статье рассматривается роль музыки в формировании социальных групп среди молодежи, взаимосвязей и сохранения культурных ценностей, а также эффективность музыкального образования и культурных мероприятий в развитии эстетической культуры молодежи.

SUMMARY. This article analyzes the important role of music's social mechanisms in the process of forming and developing youth's aesthetic culture. The author examines the influence of music on the personality, taste, moral and cultural values of young people, and the functions of communication, identification, and social integration in society. The article examines the role of music in the formation of social groups among young people, the interrelationships and preservation of cultural values, and the effectiveness of music education and cultural events in developing the aesthetic culture of young people.